ARIMA modeli 1970-yilda Boks va Jenkins tomonidan taklif etilgan bo‘lib, vaqt qatorlarini tahlil qilishda keng qo‘llaniladigan statistik instrument hisoblanadi. ARIMA vaqt qatorlarining o‘tmishdagi dinamikasi va davriylik xususiyatlarini hisobga olib, kelgusi qiymatlarni prognoz qilish imkonini beruvchi ekonometrik modeldir.

Ushbu model vaqt qatorlarining o‘tmishdagi dinamikasi, mavsumiylik va davriylik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish orqali kelgusi qiymatlarni yuqori aniqlikda prognoz qilish imkonini beradi. ARIMA modeli vaqt qatorlaridagi trendlarni, sikllarni va mavsumiy o‘zgarishlarni modellashirish orqali ma’lumotlarning kelajakdagi tendensiyalarini baholashda ishonchli vosita hisoblanadi. Modelning afzalligi uning tarkibiy qismlarining moslashuvchanligida bo‘lib, u statsionar va nostatsionar vaqt qatorlariga mos keladi.

ARIMA modelining umumiy ko‘rinishi quyidagi tenglama orqali ifodalanadi:

$$Y_t = \phi_0 + \sum_{i=1}^p \phi_i Y_{t-i} + e_t - \sum_{j=1}^q \theta_j e_{t-j}$$

Bu yerda:

Y_t — t vaqtdagi haqiqiy qiymat

ϕ_0 — konstanta (agar mavjud bo‘lsa)

ϕ_i — avtokorrelyatsiya (AR) koeffitsiyentlari

e_t — t vaqtidagi tasodifiy

xatolar (white noise)

θ_j — MA koeffitsiyentlari

p — AR tartibi

d — farqlash darajasi

q -MA tartibi

Ushbu model uchta asosiy tarkibiy qismdan iborat:

Autoregression (AR), Integrated (I) va Moving Average (MA).

Avtoregressiya (AR)— vaqt qatorining hozirgi qiymati uning oldingi davrlardagi qiymatlariga bog‘liqligini hisobga oladi.

Integratsiyalangan (I) — vaqt qatorini statsionarlashtirish uchun farqlash amaliyoti qo'llaniladi, bu orqali qatorning trend va mavsumiy ta'sirlaridan tozalanishi ta'minlanadi.


Moving Average (MA) — tasodifiy xatolarning ta'sirini yumshatish uchun qatorning kechikib kelgan xatolarini hisobga oladi.

ARIMA modeli mahsulotlarning faqatgina o'tmishdagi narx ma'lumotlari asosida qisqa muddatli prognozlarni amalga oshirishda foydali hisoblanadi. Shuningdek, u statsionar bo'lmagan qatorlarni statsionarlashtirish imkoniyatiga egaligi sababli, vaqt qatorlaridagi trend va mavsumiy ta'sirlarni hisobga olishga yordam beradi.

Shu bilan birga, ARIMA modeli ichki va tashqi shoklarni o'z ichiga olmaganligi sababli qisqa muddatli prognozlarda ham xatoliklar kuzatilishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mol go'shti narxlari uchun ARIMA (1,1,1) modeli bo'yicha olingan natijalarni olish uchun 1-rasmda narxning vaqt qatorlari grafigi keltirilgan. Model AIC (Akaike Information Criterion) va SIC (Schwarz Information Criterion) mezonlari bo'yicha eng maqbul model sifatida tanlangan. Go'sht narxi vaqt qatorlarining statsionarligi Kengaytirilgan Dikey-Fuller test natijalari 1-jadvalda keltirilgan.



1-rasm. Mol go'shti narxining vaqt qatorlari¹

¹ Muallif ishlanmasi

1-jadval

Go'sht narxi vaqt qatorlarining statsionarligi
Kengaytirilgan Dikey-Fuller (Augmented Dickey-Fuller /ADF)¹

. dfuller Molgoshti, trend regress


Dickey-Fuller test for unit root Number of obs = 107

Test Statistic	Interpolated Dickey-Fuller			
	1% Critical Value	5% Critical Value	10% Critical Value	
Z (t)	-2.285	-4.038	-3.449	-3.149

MacKinnon approximate p-value for Z(t) = 0.4421

D.Molgoshti	Coef.	Std. Err.	t	P> t	[95% Conf. Interval]	
Molgoshti						
L1.	-.0774998	.0339126	-2.29	0.024	-.1447498	-.0102498
_trend	52.48474	21.38185	2.45	0.016	10.08373	94.88575
_cons	1685.831	585.0961	2.88	0.005	525.5638	2846.099


Mol go'shti narxining PAC (qisman avtokorrelyatsiya) va AC (avtokorrelyatsiya) grafigi 2-rasmda keltirilgan.




2-rasm. Mol go'shti narxining PAC (qisman avtokorrelyatsiya) va AC (avtokorrelyatsiya) grafigi²

¹ Muallif ishlanmasi

² Muallif ishlanmasi



3-rasm. ARIMA (1;1;1) uchun qoldiqlarning vaqt ketma-ketligi chizig‘i¹



4-rasm. ARIMA (2;1;1) uchun qoldiqlarning vaqt ketma-ketligi chizig‘i²

¹ Muallif ishlanmasi


² Muallif ishlanmasi

2-jadval

Go'sht narxi uchun tanlanma asosida prognoz¹

ARIMA (1;1;1)					ARIMA(2;1;1)				
Davr	Real narx	Prognoz	Quyi chegara	Yuqori chegara	Davr	Real narx	Prognoz	Quyi chegara	Yuqori chegara
2024m3	75213.8	75416.88	74365.17	76468.59	2024m3	75213.8	75430.16	74379.65	76480.66
2024m4	75189.3	75689.24	74637.53	76740.95	2024m4	75189.3	75733.5	74682.99	76784.01
2024m5	75532	76150.71	75099	77202.42	2024m5	75532	76260.16	75209.66	77310.67
2024m6	75974.7	76667.49	75615.78	77719.2	2024m6	75974.7	76816.73	75766.22	77867.23
2024m7	77076.3	77200.45	76148.74	78252.16	2024m7	77076.3	77365.66	76315.16	78416.17
2024m8	81315.9	77738.15	76686.44	78789.86	2024m8	81315.9	77909.04	76858.53	78959.55

Kartoshka narxlari uchun ARIMA (1,1,2) modeli tanlangan bo'lib, AIC va SIC ko'rsatkichlari bo'yicha eng yaxshi natijani bergan.



5-Rasm. Kartoshka narxining vaqt qatorlari²

¹ Muallif ishlanmasi

² Muallif ishlanmasi

3-jadval

Kartoshka narxi vaqt qatorlarining statsionarligi Kengaytirilgan Dikey-Fuller (Augmented Dickey-Fuller /ADF)¹


. dfuller kartoshka, trend regress

Dickey-Fuller test for unit root Number of obs = 107

Test Statistic	Interpolated Dickey-Fuller		
	1% Critical Value	5% Critical Value	10% Critical Value
Z(t)	-2.904	-4.038	-3.449

MacKinnon approximate p-value for Z(t) = 0.1608


D.kartoshka	Coef.	Std. Err.	t	P> t	[95% Conf. Interval]	
kartoshka						
L1.	-.1507029	.0518868	-2.90	0.004	-.2535963	-.0478094
_trend	3.771446	1.732109	2.18	0.032	.3366081	7.206283
_cons	326.6617	122.1868	2.67	0.009	84.36064	568.9627




6-rasm. Kartoshka narxining trendsizlangan qatori uchun PACF (qisman avtokorrelyatsiya funksiyasi) va ACF (avtokorrelyatsiya funksiyasi) grafigi²

¹ Muallif ishlanmasi

² Muallif ishlanmasi



7-rasm. Kartoshka narxi ARIMA (1;1;2) uchun qoldiqlarning vaqt ketma-ketligi chizig‘i¹



8-rasm. Kartoshka narxi ARIMA (1;1;1) uchun qoldiqlarning vaqt ketma-ketligi chizig‘i²

¹ Muallif ishlanmasi

² Muallif ishlanmasi

4-jadval.

Kartoshka narxi tanlanma asosida prognoz¹

ARIMA (1;1;1)					ARIMA (1;1;2)				
Davr	Real narx	Prognoz	Quyi chegara	Yuqori chegara	Davr	Real narx	Prognoz	Quyi chegara	Yuqori chegara
2024m7	3868	4012.59	3299.642	4725.538	2024m7	3868	4076.326	3399.455	4753.197
2024m8	4018.2	4047.79	3334.842	4760.738	2024m8	4018.2	4195.649	3518.805	4872.492
2024m9	4376.042	4075.878	3362.93	4788.827	2024m9	4376.042	4293.887	3617.071	4970.704
2024m10	4523.8	4104.784	3391.835	4817.732	2024m10	4523.8	4375.806	3699.016	5052.595
2024m11	4951	4133.595	3420.647	4846.543	2024m11	4951	4445.092	3768.329	5121.855
2024m12	5462.7	4162.417	3449.469	4875.366	2024m12	5462.7	4504.6	3827.862	5181.337

Guruch narxlari uchun ARIMA (1,1,0) modeli qo‘llanildi. Ushbu model ham eng past AIC va SIC ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan.



9-rasm. Guruch narxining vaqt qatorlari²

¹ Muallif ishlanmasi

² Muallif ishlanmasi

5-jadval.

Guruch narxi vaqt qatorlarining statsionarligi
Kengaytirilgan Dikey-Fuller (Augmented Dickey-Fuller /ADF)¹

```
. dfuller Rice, drift regress
```


Dickey-Fuller test for unit root

```
Number of obs    =    107
```

		Z(t) has t-distribution		
Test Statistic		1% Critical Value	5% Critical Value	10% Critical Value
Z(t)	0.435	-2.362	-1.659	-1.290

p-value for $Z(t) = 0.6679$


D.Rice	Coef.	Std. Err.	t	P> t	[95% Conf. Interval]	
Rice						
L1.	.0031284	.0071844	0.44	0.664	-.0111169	.0173736
_cons	100.9304	79.96222	1.26	0.210	-57.61995	259.4807




10-rasm. Guruch narxining PACF (qisman avtokorrelyatsiya funksiyasi) va ACF (avtokorrelyatsiya funksiyasi) grafigi²

¹ Muallif ishlanmasi

² Muallif ishlanmasi



11-rasm. ARIMA (1;1;0) uchun qoldiqlarning vaqt ketma-ketligi chizig‘i¹



12-rasm. ARIMA (2;1;2) uchun qoldiqlarning vaqt ketma-ketligi chizig‘i²

¹ Muallif ishlanmasi

² Muallif ishlanmasi

5-jadval

Guruch narxi ARIMA (1;1;0) va (2;1;2) uchun tanlanma asosida prognoz¹

ARIMA (1;1;0)					ARIMA (2;1;2)				
Davr	Real narx	Prognoz	Quyi chegara	Yuqori chegara	Davr	Real narx	Prognoz	Quyi chegara	Yuqori chegara
2024m5	19123.8	18864.59	18270.15	19459.02	2024m5	19123.8	18800.21	18210.86	19389.57
2024m6	19182.5	18965.16	18370.72	19559.6	2024m6	19182.5	18841.52	18252.16	19430.87
2024m7	19318.4	19086.04	18491.61	19680.48	2024m7	19318.4	18902.16	18312.8	19491.51
2024m8	19418.4	19218.68	18624.25	19813.12	2024m8	19418.4	18978.47	18389.12	19567.82
2024m9	19552.25	19358.13	18763.69	19952.56	2024m9	19552.25	19067.47	18478.12	19656.82
2024m10	19143.5	19501.5	18907.07	20095.94	2024m10	19143.5	19166.76	18577.41	19756.11

Mazkur tahlillar stata dasturida amalga oshirildi 6 ta bosqichni o‘z ichiga oldi.

Tadqiqot jarayonining birinchi bosqichida oziq-ovqat mahsulotlarining (mol go’shti, kartoshka va guruh) o‘tmishdagi narx ma’lumotlari Statistika agentligining rasmiy saytidan yuklab olindi. Stata dasturiga import qilingan ma’lumotlar 2016-yilning yanvaridan 2024-yilning dekabr oyigacha bo‘lgan davrni qamrab oldi. Ma’lumotlarni import qilish jarayonida ma’lumotlarning to‘liqligi va to‘g‘riligi tekshirildi. Yo‘qotilgan qiymatlar (missing values) aniqlanganda, ularni yoxud o‘rtacha qiymat bilan to‘ldirish, yoxud qatorli interpolyatsiya usullari qo‘llanildi. Shuningdek, ma’lumotlar qatorlaridagi ekstremal qiymatlar (outliers) tahlil qilindi va ularning prognozlarga salbiy ta’sirini kamaytirish uchun tegishli filtratsiya va normalizatsiya amaliyotlari bajarildi. Ma’lumotlarni tayyorlash jarayonida ularning formatlashtirilishi va ARIMA modeliga mos kelishiga alohida e’tibor berildi.

Vaqt qatorlarining statsionarligini tekshirishda Kengaytirilgan Dikey-Fuller (ADF) testi qo‘llanildi. Statsionar qatorlarda o‘rtacha va dispersiya vaqt davomida o‘zgarmasligini ta’minlash uchun ushbu test muhim ahamiyatga ega. Agar qator statsionar bo‘lmasa, farqlash amaliyoti (d) qo‘llanilib, ma’lumotlar statsionar holatga keltirildi. Masalan, mol go’shti, kartoshka va guruh narxlari uchun birinchi darajali farqlash (d=1) yetarli bo‘ldi. ADF testi natijalari vaqt qatorlarida trend va mavsumiylik ta’sirlarini bartaraf qilish zarurligini ko‘rsatdi. Statsionarlashtirilgan qatorlar keyingi modellashtirish jarayoni uchun tayyorlandi. Shu bilan birga, farqlash amaliyoti natijasida ma’lumotlar qatoridagi davriylik va trend ta’sirlari yumshatildi, bu esa ARIMA modelining prognoz qilish imkoniyatini oshirishga yordam berdi.

Avtokorrelyatsiya funksiyasi (ACF) va qisman avtokorrelyatsiya funksiyasi (PACF) grafiklari AR va MA parametrlarini aniqlashda muhim vosita bo‘ldi. ACF grafigi vaqt qatoridagi kechikishlar o‘rtasidagi to‘liq korrelyatsiyani ko‘rsatsa, PACF

¹ Muallif ishlanmasi

grafigi faqatgina to'g'ridan-to'g'ri bog'liqliklarni aniqlash imkonini berdi. Mazkur grafiklar asosida har bir mahsulot uchun eng munosib AR (p) va MA (q) tartiblari tanlandi. Grafiklarni tahlil qilish natijasida AR va MA koeffitsiyentlarining moslashuvchanligi baholandi. Mol go'shti narxlari uchun ARIMA (1,1,1), kartoshka uchun ARIMA (1,1,2) va guruch uchun ARIMA (1,1,0) modellari tanlandi. Bu modellar vaqt qatorlarining dinamikasi va mavsumiylik xususiyatlarini to'g'ri aks ettirdi.

ARIMA modelini tanlash jarayonida turli AR (avtoregressiya), I (integratsiya) va MA (ko'chuvchi o'rtacha) parametrlarining birlashmalari sinovdan o'tkazildi. Model tanlashda Akaike Information Criterion (AIC) va Schwarz Information Criterion (SIC) ma'lumotlar mezonlari asosiy o'lchov sifatida foydalanildi. AIC va SIC mezonlari modelning aniqligi va moslashuvchanligini baholashga yordam beradi, chunki ular modelning murakkabligini va ma'lumotlarga mosligini hisobga oladi. Turli modellar orasida eng past AIC va SIC qiymatlariga ega bo'lgan modellar prognoz qilish uchun eng munosib deb tanlandi. Mol go'shti narxlari uchun ARIMA (1,1,1) modeli eng yaxshi natijani berdi. Kartoshka narxlari uchun ARIMA (1,1,2) modeli tanlangan bo'lib, u ham AIC va SIC mezonlari bo'yicha eng maqbul natijani ko'rsatdi. Guruch narxlari uchun esa ARIMA (1,1,0) modeli tanlandi.

ARIMA modelining to'g'riligi va ishonchliligini baholash uchun model diagnostikasi amalga oshirildi. Model diagnostikasi jarayonida qoldiqlar (residuallar) tahlil qilinib, ularning "oq shovqin" (white noise) ekanligini tekshirish asosiy maqsad qilib qo'yildi. "Oq shovqin" degani, qoldiqlar o'rtacha atrofida tasodifiy taqsimlangan va ular o'rtasida avtokorrelyatsiya mavjud emasligini anglatadi. Qoldiqlar avtokorrelyatsiyasini baholash uchun Ljung-Box Q-testi qo'llanildi. Agar test natijasida p-qiymatlar 0.05 dan katta bo'lsa, qoldiqlar avtokorrelyatsiyasiz deb qabul qilinadi, bu esa modelning to'g'ri prognoz qilish qobiliyatini tasdiqlaydi.

Shuningdek, qoldiqlarning gistogrammasi va normal taqsimotga mos keluvchi qiymatlari vizual tahlil qilindi. Agar qoldiqlar normal taqsimotga yaqin bo'lsa, model prognozlari yuqori ishonchga ega bo'ladi. Model diagnostikasi natijalari ARIMA modellarining har biri (mol go'shti uchun ARIMA (1,1,1), kartoshka uchun ARIMA (1,1,2), guruch uchun ARIMA (1,1,0)) to'g'ri tanlanganligini va ularning prognoz qilish qobiliyati yuqori ekanligini ko'rsatdi.

Tanlab olingan ARIMA modelining qanchalik to'g'ri prognoz qilishini tekshirish uchun tanlanma asosida prognozlar amalga oshirildi. Tanlanma asosida prognozlashda mavjud ma'lumotlardan foydalanib, o'tgan davrlar uchun prognoz qilindi. Bunda model ma'lumotlarni qanchalik to'g'ri aks ettirgani tekshirildi. Masalan, prognozlangan narxlar va haqiqiy narxlar o'rtasidagi farqlar (xatoliklar) hisoblandi. Shuningdek, kelgusidagi qiymatlarni aniqlash uchun tanlanmadan tashqari prognozlash amalga oshirildi.

Qozog‘iston Respublikasi Savdo bo‘yicha idoralararo komissiyaning 2025-yil 16-yanvardagi yig‘ilishida Qozog‘istonning kartoshka mahsuloti eksportiga qo‘yilgan 6 oylik cheklovlari sababli, yanvar oyida O‘zbekistondagi kartoshka narxlarida yuqori o‘shish kuzatildi. 2024-yilda kartoshka importining 72 foizi Qozog‘iston hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Fevral oyida kartoshka narxi barqarorlashganligi sababli narx prognozlashda yanvar oyi narxlari inobatga olinmadi.

ARIMA modeli asosida mol go‘шти, guruch va kartoshka narxlarining prognoz natijalari

Ushbu tadqiqotda ARIMA modeli asosida ijtimoiy muhim oziq-ovqat mahsulotlari (jumladan, mol go‘шти, kartoshka va guruch) narxlarini qisqa muddatli prognoz qilish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi. Tadqiqot natijalari ARIMA modeli vaqt qatorlari ma‘lumotlari asosida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining kelgusidagi dinamikasini prognoz qilishda samarali ekonometrik model hisoblanishini ko‘rsatdi.

2025 yilning mart va may oylari uchun prognoz natijalariga ko‘ra:

Mol go‘шти mart oyida 1 kg uchun o‘rtacha 88 ming so‘m (minimum 86,8 ming so‘m, maksimum 90 ming so‘m)ga yetishi prognoz qilindi. Shuningdek, aprel va may oylarida 1 kg mol go‘штining bozorlardagi o‘rtacha narxi 89 ming so‘m (minimum 87,4 ming so‘m, maksimum 91,2 ming so‘m) bo‘lishi prognoz qilindi.

6-jadval


Go‘шт narxi Prognoz qiymatlari¹

Prognoz davri	Prognoz	Quyi chegara	Yuqori chegara
Yanvar (2025-yil)	87360.59	86176.7	88544.48
Fevral (2025-yil)	87842.09	86312.42	89371.75
Mart (2025-yil)	88401.23	86834.06	89968.41
Aprel (2025-yil)	88987.71	87415.96	90559.46
May (2025-yil)	89583.8	88011.48	91156.13

Tashqi va ichki shoklar bo‘lmagan holda 1 kg kartoshkaning bozorlardagi o‘rtacha narxi mart oyida 4 600 so‘mdan 6 000 so‘mgacha bo‘lgan diapazonda shakllanishi prognoz qilindi. Aprel va may oylarida 1 kg kartoshkaning o‘rtacha narxi

¹ Muallif ishlanmasi

5 200 so‘m (minimum 4 500 so‘m, maksimum 5 900 so‘m)ni tashkil etishi prognoz qilindi.



13-rasm. Kartoshka narxini 95% ishonchlilik intervali bilan prognozlash¹

7-jadval

Kartoshka narxining prognoz qiymatlari²


Muddat	Prognoz	Quyi chegara (95% ishonch intervali)	Yuqori chegara (95% ishonch intervali)
Yanvar (2025-yil)	5496.662	4828.967	6164.356
Fevral (2025-yil)	5373.407	4692.578	6054.235
Mart (2025-yil)	5284.249	4582.077	5986.42
Aprel (2025-yil)	5221.521	4506.831	5936.211
May (2025-yil)	5179.282	4457.174	5901.39

1 kg guruchning mart oyida bozorlardagi o‘rtacha narxi 17,2 ming so‘mdan 18,7 ming so‘mgacha bo‘lgan diapazonda shakllanishi prognoz qilindi. Aprel va may oylari

¹ Muallif ishlanmasi

² Muallif ishlanmasi

davomida 1 kg guruchning bozorlardagi oʻrtacha narxi 17,3 ming soʻmdan 19 ming soʻmgacha boʻlgan diapazonda saqlanishi prognoz qilindi.



8-jadval

Guruch narxining prognoz qiymatlari²

Prognoz davri	Prognoz	Quyi chegara	Yuqori chegara
Yanvar (2025)	18004.14	17417.07	18591.21
Fevral (2025)	17954.6	17270.59	18638.61
Mart (2025)	17974.79	17259.3	18690.27
Aprel (2025)	18036.67	17310.26	18763.07
May (2025)	18123.47	17393.2	18853.74

ARIMA modeli asosida mol go'shti, guruch va kartoshka mahsuloti narxлари prognozlari ichki va tashqi shoklar mavjud emasligi sharti asosida shakllantirilgan. Agar prognoz davri davomida ichki va tashqi shoklar yuz bersa, bozordagi talab va taklif muvozanati o'zgarishi mumkin, bu esa model natijalarining amaldagi dinamikadan farq qilish ehtimolini oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

¹ Muallif ishlanmasi

² Muallif ishlanmasi

Ushbu tadqiqotda O'zbekistonda ijtimoiy ahamiyatga ega oziq-ovqat mahsulotlari — mol go'shti, kartoshka va guruch narxlarini qisqa muddatli prognozlash uchun ARIMA (Autoregressive Integrated Moving Average) modeli ishlab chiqildi va amalda qo'llanildi. Tadqiqot Milliy statistika qo'mitasi tomonidan taqdim etilgan so'nggi 5 yillik tarixiy ma'lumotlarga asoslanib, narxlar dinamikasini tahlil qilish va 2025-yilning mart-may oylari uchun narxlar prognozini amalga oshirishga qaratildi. ARIMA modeli vaqt qatorlarining o'tmishdagi xususiyatlarini hisobga olgan holda narxlarning kelajakdagi tendensiyalarini yuqori darajadagi aniqlik bilan bashorat qilishda samarali vosita sifatida o'zini ko'rsatdi ($RMSE = 2.1$).

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ARIMA modeli qisqa muddatli prognozlar uchun munosib vosita bo'lib, davlat organlariga narxlarning o'zgaruvchanligini monitoring qilish, bozorni o'z vaqtida tartibga solish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda yordam berish imkonini beradi. Biroq, model tashqi va ichki shoklar (valyuta kursi o'zgarishlari, import hajmi, ob-havo sharoitlari)ni hisobga olmaganligi sababli uning imkoniyatlari ma'lum darajada cheklangan. Shu munosabat bilan, kelajakda prognozlarning aniqligini oshirish maqsadida ekzogen omillarni integratsiya qilish va boshqa ekonometrik modellar (masalan, VAR, VECM yoki SARIMA) bilan birga qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tadqiqot oziq-ovqat xavfsizligi va narxlar barqarorligini ta'minlashda zamonaviy ekonometrik usullardan foydalanishning ahamiyatini yana bir bor isbotlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Raksha Khadka, Yeong Nain Chi, Forecasting the Global Price of Corn: Unveiling Insights with SARIMA Modelling Amidst Geopolitical Events and Market Dynamics, 2024
2. Azer Gurbanzade, The Impact of The Implementation of Guaranteed and Intervention Prices on Food Security, 2024
3. Yajun Wang, Shilin Luan, Sajid Ali, Raima Nazar, Muhammad Khalid Anser, The Puzzle of Food Inflation: Exploring the Asymmetric Nexus Between Economic Policy Uncertainty and Food Prices in the Expanded BRICS Countries, 2025
4. FAO, The State of Food Security and Nutrition in the World, 2023
5. Matthew MacLachlan, Carolyn Chelius, Gianna Short, Time-series methods for forecasting and modeling uncertainty in the food price outlook, 2022
6. N. Selmi, S. Chaabene, N. Hachicha, Forecasting returns on a stock market using Artificial Neural Networks and GARCH family models: Evidence of stock market S&P500, 3rd International Conference on Management, Finance and Entrepreneurship, 2014
7. David M. Chen, Benjamin Leon Bodirsky, Xiaoxi Wang, Jiaqi Xuan, Jan Philipp Dietrich, Alexander Popp, Hermann Lotze-Campen, Future food prices will become less sensitive to agricultural market prices and mitigation costs, 2025
8. I Sumertajaya, E Rohaeti, A Fitrianto, P Adi, W Ponco, Development of Food Commodity Price Forecasting Model as an Early Warning System with a Multivariate Time Series Clustering, 2024

9. Sydney Balboni, Grace Ivey, Brett Storoe, John Cisler, Tyge Plater, Caitlyn Grant, Ella Bruce, Benjamin Paulson, NourishNet: Proactive Severity State Forecasting of Food Commodity Prices for Global Warning Systems, 2024
10. NMF Rahman, MA Aziz, MM Rahman, Modeling on grass pea and mung bean pulse production in Bangladesh using ARIMA model, 2013
11. Rotem Zelingher, Democratising Agricultural Commodity Price Forecasting: The AGRICAF Approach, 2024
12. David Benavides, Sergio Segura, Antonio Ruiz-Cortés, Automated analysis of feature models 20 years later: A literature review, 2009
13. Manik Arora, Gurinder Singh, Danish Ather, Naina Chaudhary, Rajneesh Kler, Forecasting Inbound Tourism in Uzbekistan: Leveraging AI and ARIMA Models for Economic Growth Insights, 2023
14. Shashi Shekhar, Gowda, H Rahul, R Ravi, Crop Price Prediction, International Journal Science and Engineering Technology (IJRASET), pp 1174-1177
15. Herlina Jayadianti, Vynska Amalia Permadi, Partoyo Partoyo, LSTM forecast of volatile national strategic food commodities, Jurnal Infotel, pp 345-351
16. J Crespo Cuaresma, J Hlouskova, M Obersteiner, Agricultural commodity price dynamics and their determinants: A comprehensive econometric approach, Journal of Forecasting 40 (7), 1245-1273 pp
17. F.Muslimova, Prognozirovaniye makroekonomicheskix pokazateley Respubliki Uzbekistan s ispolzovaniyem modeli ARIMA, 2024
18. O.Rikhsimbaev, A.Ishnazarov, S.Mamasoliyev, Comparison of ARIMA and Deep Learning Models for Forecasting the Consumer Price Index in Uzbekistan: Using R Packages, 2024
19. Tanjim Mahmud, Nippon Datta, Rishita Chakma, Utpol Kanti Das, Mohammad Tarek Aziz, Musaddikul Islam, An Approach for Crop Prediction in Agriculture: Integrating Genetic Algorithms and Machine Learning, 2024



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, mart, 3-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**